



AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA PUL ISLOHOTINI TASHKIL ETISH MEXANIZMI

PhD, dots. **Tursunov Bekmuxammad**
Biznes va fan universiteti Toshkent filiali
ORCID: 0000-0001-9297-8361
tursunov6b60@gmail.com
Raimberdiev Samandar
Biznes va fan universiteti Toshkent filiali
ORCID: 0000-0002-0513-9859
samandarubs@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Amir Temur va temuriylar davrida amalga oshirilgan pul islohoti va uni tashkil etish mexanizmi tadqiq etilgan. Temuriylar davrida pul tizimining tarkibiy elementlari hisoblangan zarbxonalar faoliyati, pul birliklarini joriy etish yo'llari asoslangan. Pul muomalasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni rivojlanish xususiyatlariga asosan pul islohotini amalga oshirishning mavjud yo'nalishlari tizimlashtirilgan. XIV-XV asrlarda tashqi va ichki savdo jarayonlarida tovar ayriboshlashni muvofiqlashtirishda pul muomalasini tashkil etishning o'rni borasida tegishli xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: pul islohoti, pul muomalasi, pul tizimi, tovar-pul munosabati, pul taklifi, moliyaviy siyosat, moliyaviy nazorat, moliya tizimi, fulus tangalar, iqtisodiy siyosat.

МЕХАНИЗМ ОРГАНИЗАЦИИ ДЕНЕЖНОЙ РЕФОРМЫ В ЭПОХУ АМИРА ТЕМУРА И ТИМУРИДОВ

PhD, доц. **Турсунов Бекмухаммад**
Ташкентский филиал Университета бизнеса и науки
Райимбердиев Самандар
Ташкентский филиал Университета бизнеса и науки

Аннотация. В этой статье исследуются денежные реформы, проведенные при Амуре Тимура и тимуридах, механизм их организации. В основе денежной реформы при тимуридах лежала деятельность монетных дворов, способы введения денежных единиц, которые считались составными элементами денежной системы. В соответствии с особенностями развития факторов, влияющих на денежное обращение, систематизируются существующие направления осуществления денежной реформы. В XIV-XV веках на основе внешнеторговых и внутри торговых отношений были сформулированы соответствующие выводы о роли денежного обращения в процессе товарооборота и возможностях его координации.

Ключевые слова: денежная реформа, денежное обращение, денежная система, товарно-денежные отношения, денежная масса, финансовая политика, финансовый контроль, финансовая система, монеты "fulus", экономическая политика.

MECHANISM FOR ORGANIZING MONETARY REFORM IN THE ERA OF AMIR TEMUR AND THE TIMURIDS

PhD, assoc. prof. Tursunov Bekmukhammad

Tashkent branch of University of Business and Science

Rayimberdiev Samandar

Tashkent branch of University of Business and Science

Abstract. *This article examines the monetary reforms carried out under the Amir of Timur and Timurids, and the mechanism of their organization. The monetary reform under the Timurids was based on the activities of mints, methods of introducing monetary units, which were considered integral elements of the monetary system. In accordance with the peculiarities of the development of the factors influencing monetary circulation, the existing directions of monetary reform implementation are systematized. In the XIV-XV centuries, on the basis of foreign trade and intra-trade relations, relevant conclusions were formulated about the role of money circulation in the process of commodity turnover and the possibilities of its coordination.*

Keywords: *monetary reform, monetary circulation, monetary system, commodity-money relations, money supply, financial policy, financial control, financial system, fulus coins, economic policy.*

Kirish.

XIV-asr ikkinchi yarmida shakllangan va XVI-asr boshlariga qadar faoliyat olib borgan Amir Temur va temuriylar saltanati nafaqat jahondagi murakkab siyosiy vaziyatni tartibga solishda, balki ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashga qo'shgan hissasi bilan ham alohida o'rin egallaydi. Mazkur saltanatning jahon ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashdagi o'rni va uni tashkil etish tizimi ko'plab xorijiy va mahalliy olimlarning keng ko'lamli tartibdagi tadqiqotlari orqali o'rganilgan. O'z navbatida mazkur tadqiqotlar orasida Amir Temurning harbiy san'ati, uning davlat boshqaruv tizimini tashkil etish jarayoni, ilm-fan va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish borasidagi faoliyati alohida o'rin egallaydi. Shuningdek, Amir Temur va temuriylar saltanatini mustahkam asosda qaror topishida nafaqat harbiy salohiyatning o'rnin, balki harbiy faoliyatni muvofiqlashtirishga xizmat qilgan iqtisodiy islohotlar hamda, moliyaviy munosabatlarni tashkil etish jarayonlarining ta'siri yuqori natijadorlikka ega ekanligini ko'rsatadi.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda mazkur saltanatning qariyb 40 dan ortiq davlatlar bilan tashqi savdo faoliyatini yo'lga qo'yganligi, tashqi savdo munosabatlarini amalga oshirishda boj va soliq undirish tartibini to'g'ri yo'lga qo'yilganligini asoslashga imkon beradi. Milliy ishlab chiqarish tizimini tashkil etish mexanizmini to'g'ri yo'lga qo'yilganligi o'zaro tashqi savdoda ma'lum ustuvorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu boisdan, ushbu jarayonni tashqi savdo faoliyatidagi ma'lum ustuvorlikni ta'minlashdagi mantiqiy asosiga tayangan holda aytish mumkinki, temuriylar saltanatida tovar va pul muomalasini tashkil etishning tegishli mexanizmi to'g'ri yo'lga qo'yilgan. Chunonchi, sog'lom pul muomalasini tashkil etish orqaligina bunday ulkan imperiyaning davlat boshqaruvini tashkil etish, harbiy sohadagi salohiyatini oshirish, qonunchilik va iqtisodiy siyosatdagi ma'lum natijadorliklarni ta'minlash, ichki hamda xalqaro darajada savdo-sotiqni rivojlantirish imkoniyatlariga ega bo'lish mumkin. Bu kabi qator holatlar Amir Temur va temuriylar davrida pul islohotini tashkil etish mexanizmini tadqiq etish jarayonlarini ilmiy asosda o'rganishni dolzarb ahamiyat kasb etishidan dalolat beradi.

Adabiyotlar sharhi.

Amir Temur va temuriylar davridagi ijtimoiy-iqtisodiy hayotning keng ko'lamli tadqiqi doimiy ravishda dunyo olimlarining diqqat markazida bo'lgan ilmiy izlanishlar qatorida

muhim o'rin egallaydi. Bu boradagi muayyan tadqiqotlar asosini yoritishda Amir Temurning "Temur tuzuklari" (2019) asari o'ziga xos ahamiyatga ega. Ushbu asarda pul siyosatiga oid to'g'ridan-to'g'ri bandlar mavjud bo'lmasada, davlat moliyaviy siyosatining umumiy qoidalari orqali pul islohotlatining tegishli mafkuraviy asosi yoritilgan. Tarixchi olim Bartoldning (1922) "Turkiston tarixi" nomli asarida temuriylar davridagi iqtisodiy tizim, savdo yo'llari va tangasozlik faoliyatining tarixiy asoslari yoritib berilgan. U, Yevropa va Sharq manbalariga tayangan holda temuriylar imperiyasida tangalarning muomaladagi o'rni, zarbxonalar faoliyati tovar-pul ayirboshlash mexanizmlarini ilmiy asosda tahlil qiladi. Masson (1969) ilmiy izlanishlarida Amir Temur va temuriy shaxzoda Xalil Sulton tomonidan tanga pullarni zarb etish jarayonini tashkil etish tizimi o'rganilingan. Tangalarni zarb etishda vazn standartlarini belgilash, tangalarni xarid qobiliyatini tegishli tartibda tenglashtirishning umumiy va xususiy ko'rsatkichlarini shakllantirish amaliyoti tadqiq etilgan. Davidovich (1983) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda temuriylar davrida pul islohotini amalga oshirishda tangalarning og'irligi va shakllari, pul muomalasini tovar ishlab chiqarish va savdo sohasiga ta'siri tahlil qilinadi.

Mamlakatimiz olimlaridan To'xtiyev (2006) tadqiqotlariga doir ilmiy adabiyotlarda temuriylar davlatining shakllanishi va rivojlanishi jarayonida moliya-pul tizimining o'rni va uni amalga oshirish mexanizmini iqtisodiy taraqqiyotga ta'siri o'rganilgan. Razzoqov, Tashmatov, O'rmonovlarning (2007) ilmiy tadqiqotlarida Ulug'bek davrida amalga oshirilgan "fulusi adliya" islohotining mazmun-mohiyoti nazariy jihatdan asoslab berilgan. Mazkur islohotni ichki va tashqi savdo munosabatlarini amalga oshirishdagi o'rni ko'rsatib o'tilgan. Islomov, Egamov (2003) kabi iqtisodchi olimlar temuriylar davrida pul islohotini amalga oshirishda tangalar orasidagi nisbatning o'zgarishiga alohida e'tibor qaratadilar. Tadqiqot xulosalari temuriylarning tanga standartlari hisoblangan misqol va mirining vazni, ularni muomalaga kiritish shakli borasida aniqlik kiritish imkoniyatini beradi. Nurmuxamidova, Allayarova, Mamajonovlarning (2020) ilmiy tadqiqotlarida temuriylar davrida eski chaqalarni yangisiga almashtirib, ichki savdoning mayda mis pullarga bo'lgan talabini qondirish maqsadida Buxoro, Samarqand, Qarshi, Termiz, Toshkent, Shoxruxiya va Andijon shaharlarida zarbxonalar tashkil etilganligi qayd etilgan. Ushbu zarbxonalarni bir xil vazndagi salmoqli mis fuluslarni zarb etishdagi o'rni, eski chaqalarni yangi pullarga almashtirib olingach, mis pullar zarbini markazlashtirish maqsadida boshqa shaharlardagi zarbxonalarga barham berilganligi ta'kidlangan. Normuminovning (2020) tadqiqotlarida Amir Temur va temuriylar imperiyasining pul tizimini Kichik Osiyo va Yevropa mamlakatlari bilan savdo munosabatlariga ta'siri o'rganilgan bo'lib, mazkur jarayonlarda pul birliklarining tashqi savdo faoliyatida o'zaro ustuvorlikni ta'minlashdagi muhim ishtiroki alohida o'rin egallaganligi qayd etilgan. Tojiyevning (2022) tadqiqotlari temuriylar davrida pul islohoti va tangasozlik siyosatini o'rganishning tarixiy, huquqiy, iqtisodiy va numizmatik jihatlarni qamrab olinganligi ushbu davr pul tizimining shakllanish mexanizmini chuqur o'rganishga imkon beradi.

Yuqoridagi ilmiy tadqiqotlarda Amir Temur va temuriylar davrida pul tizimini tashkil etish amaliyoti va uni muvofiqlashtirish yo'nalishlari tadqiq etilgan. Ammo, pul islohotini amalga oshirish mexanizmini o'zgaruvchan xususiyatlariga muvofiq pul muomalasini tashkil etish amaliyotiga e'tibor berilmaganligini qayd etish o'rinli.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning mantiqiy abstraksiya, induksiya va deduksiya, tizimli tahlil kabi usullaridan keng qamrovli tartibda foydalanilgan.

Tahlil va natijalar mohokamasi.

Har bir mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida pul tizimi va uning tashkiliy elementlari o'rtasida o'zaro muvofqlikni ta'minlash jarayoni muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa,

mazkur jarayonning mustahkam asosini barcha qudratli davlatlar singari Amir Temur va temuriylar davlatchilik tizimida ham kuzatishimiz mumkin. Temuriylar imperiyasida pul muomalasini tashkil etishning tegishli asosi nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy mustaqillikni ifoda etuvchi asosiy ko'rsatkich hisoblanganligi bois, bunga nisbatan zaruriyat yuqori edi. Bu borada Amir Temurning "Temur tuzuklari" asarida "Haqiqat shul erkan, ahli bayt nomiga xutba o'qib, ularning nomi zarblangan pullar chiqarish lozim" degan jumla mazkur fikrimizni asoslashga xizmat qiladi.

Mustaqil pul muomalasini tashkil etishning siyosiy jihatlari imperiya mustaqilligi asosi hisoblansa, mazkur jarayonning iqtisodiy asosi imperiya hududida moliyaviy islohotlarni tashkil etishning muhim omili ekanligi orqali namoyon bo'ladi. Iqtisodiy mustaqillikni ta'minlashdagi o'rni soliq to'lovlarini amalga oshirish, tashqi savdo faoliyati doirasida bojlarni undirish, tovar va xizmatlarga narx belgilash jarayonlarini muvofiqlashtirishga xizmat qiladi. O'z navbatida imperiya hududlarining kengayib borishi uning tarkibiga kiruvchi mamlakatlar o'rtasida tovar-pul munosabatlarini rivojlantirishni taqozo etganligi bois, muomiladagi pul miqdorini zaruriy tartibda oshirish imkoniyatini beradigan zarbxonalar faoliyatini shakllantirishni taqozo etadi.

Amir Temur hukmronligi yillarida (1370-1405) nafaqat Movarounnahrning markaziy shaharlarida, balki Xuroson, Eron, Ozarbayjon hududlarida chunonchi, Astrabod, Ashpara, Boku, Basra, Bag'dod, Bomiyon, Damg'on, Darband, Yazd, Isfahon, Koshon, Qarshi, Kermon, Qum, Mordin, Mahmudobod, Mashhad, Sova, Samarqand, Sultoniya, Tabriz, Xorazm, Shabanka, Sheroz, Shamaxa va Hirot kabi 40 ga yaqin shaharlarda tanga pullar zarb qilingan. Mazkur davrda zarbxonalarning to'xtovsiz faoliyati imperiya doirasida tovar ayriboshlash hajmining muqobil sur'atlarda o'sib borganligini, imperiyaning boshqa xorijiy mamlakatlar bilan o'zaro tovar ayriboshlash jarayonidagi hamkorlik aloqalarini kengaytirishga xizmat qilgan bo'lishi shubhasiz.

A.Temur davridagi pul islohotining o'ziga xos xususiyatlarini quyidagilar orqali umumlashtirish mumkin:

- oltin, kumush va mis tangalar zarb ettirilgan. Ammo oltin tangalar kamdan kam zarb etilgan. Jumladan, 1380-yilda Samarqand va Xorazmda oltin tangalar zarb ettirigan;

- zarb ettirilgan tangalar qator xususiyatlari bilan boshqa davr tangalaridan tubdan farq qilgan. Zarb qilingan tangalarga bosilgan tamg'alar shular jumlasidandir. Ular asosan dumaloq, to'rtburchak va gul (asosan anor) ga o'xshash naqshlar va hokazolardan iborat bo'lgan;

- tangalarda Amir Temurning nomi bilan birgalikda taxtga chiqarilgan mo'g'ul xonlari nomi qo'shib yozilgan. 1372-1388 yillarda Suyurg'atmishxon, uning vafotidan so'ng o'g'li Sulton Mahmudxon nomi bilan 1402-yilgacha zarb etilgan;

- Amir Temur davrida zarb etilgan tangalarda arabcha, forsha, turkcha va mo'g'ulcha so'zlarni o'qish mumkin. Masalan arabcha (اطلس دخت سultonligini boqiy qilsin), forsha- برض (Alloh uning podshohligi va zarb), turkcha - (سوزموزso'zim), (غولريyorig'i) va mo'g'ulcha- (akmanu-mening so'zim), (كويوكuyov) kabi so'zlar uchraydi;

- oltin va kumush tangalar sofliigi va vazni alohida nazorat qilingan. Tangalarda mahalliy bezaklarning o'ziga xosligi, nafisligi ham saqlab qolgan bo'lib Hirot, Mashhad, Isfahon, Tabriz va Bag'dodda zarb qilingan tangalarda bu xususiyatlar yaqqol namoyon bo'ladi;

- Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafanoma" asarida: "Amir Temurning turk sultoni ustidan g'alabasidan so'ng Misr va Shom hukmdori Malik Nosir Amir Sohibqironga muxolifat bo'lish mumkin emasligini anglab, o'z taqdiri omonligini tilab, Amir Temur nomiga xutba o'qitib tangalar zarb qildi" deb ma'lumot beradi. Ko'plab tarixchi olimlar Mirzo Ulug'bek davrida eski tangalarni yangisiga almashtirishga qulay bo'lishi uchun Andijon, Toshkent, Shoxruxiya, Buxoro, Samarqand, Qarshi, Termiz va Hisorda zarbxonalar tashkil qilinganligi, pul almashtirish jarayoni nihoyasiga yetgach Buxorodan tashqari barcha zarbxonalar yopilganligini qayd etadilar.

Amir Temur va temuriylar davrida pul islohotini tashkil etish mexanizmi va uning tashkiliy asosini yuqorida keltirilgan fikr hamda mulohazalarga asoslanib quyidagicha umumlashtirish mumkin (1-jadval).

1-jadval

Amir Temur va temuriylar davrida pul islohotini tashkil etish mexanizmi

Bosqich	Izoh
1. Tangasozlikni markazlashtirish	Amir Temur tangasozlikni o'z nazoratiga olib, davlat markazlari orqali tanga zarb qilishni joriy etdi.
2. Tanga birligini belgilash	Pul birliklari sifatida dinor, dirham va fulus ishlatildi. Og'irligi va tarkibi standartlashtirildi.
3. Tangalarga davlat ramzlarini tushurish	Tangalar ustiga Amir Temurning nomi va unvoni, ba'zida Qur'on oyatlari zarb qilingan.
4. Qalbakilashtirishga qarshi choralar	Tangalarning og'irligi, tarkibi, naqshi va shakli qat'iy nazorat qilingan.
5. Pul muomalasini tartibga solish	Mahalliy va xalqaro savdoda bir xil tanga standartlari orqali ishonchli muomala muhitini yaratish.
6. Tangalarni hududlar bo'yicha aylantirish	Har bir yirik shahar (Samarqand, Hirot, Buxoro) o'z tangasini zarb qilgan, ammo yagona tizimga bo'ysungan.
7. Xazina nazorati	Davlat xazinasi va saroy moliyachilari tanga aylanishi orqali daromad hisobini olib borganlar.

Amir Temur va temuriylar davridagi pul islohoti o'sha davrdagi qator mamlakatlar bilan taqqoslaganda yuksak darajada ilg'or, markazlashtirilgan va strategik yondashuv asosida tashkil etilganligi bilan ajralib turadi. Bu davrda tangasozlik faoliyati davlat nazoratiga olingan, zarbxonalar markazlashtirilgan holda faoliyat yuritgan. Yagona pul birliklari – dinor, dirham, fulus kabi tangalar muomalaga kiritilingan bo'lib, tangalar og'irligi va naqshi qat'iy belgilangan. Tangalar ustiga hukmdor nomi zarb qilinishi nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy ramz sifatida xizmat qilgan.

Temuriylar davrida tanga pullarni qalbakilashtirishga qarshi samarali nazorat tizimining yo'lga qo'yilganligi, pul muomalasi ustidan doimiy moliyaviy nazorat yuritilganligi ichki va tashi bozorlarda savdo-sotiqning faollashuvi, davlat xazinasining barqaror daromad manbai sifatida shakllanishiga ta'sir ko'rsatdi.

Temuriylardan faqatgina Shohruh Mirzoning o'g'li Mirzo Ulug'bek tomonidan zarb etilgan tangalarda bobosi Amir Temurning tamg'asi va nomi esga olinadi. (Timur Ko'ragon himmatidin Ulug'bek so'zim: zarb Samarqand 853/1449). Mirzo Ulug'bek ham tanga zarb ettirishga bobosi kabi e'tiborli bo'lib, pul islohoti o'tkazadi. Mirzo Ulug'bek va boshqa temuriy hukmdorlar davridagi pul islohotini tashkil etish quyidagilarga asoslanadi;

- 1418-1429 yillarda Ulug'bek o'tkazgan pul islohoti tufayli butun mamlakat uchun yagona tanga pul joriy etilgan. Tadqiqotchilar Ulug'bekning pul islohoti uning yer rentasini kamaytirish va asosiy qismi xazinaga tushadigan tamg'a soliqlari (tushuvchi daromadlar)ni boshqarishga uringani bilan bog'lanadi;

- 1428-yilda Ulug'bekning Fulusi pullar borasidagi islohoti katta ahamiyatga ega bo'lib, bu islohot orqali chakana savdo jarayonida foydalanilayotgan yengil va mayda o'zgarmas pullarni man qildi;

- Mirzo Ulug'bek tomonidan kichik mis tangalarga bo'lgan ehtiyojni qondirish maqsadida Buxoro, Samarqand, Qarshi, Termiz, Toshkent, Shoxruxiya, Andijonda tanga zarb qilinadigan maxsus joylar ochilgan. Bu orqali bir xil og'irlikdagi fuluslar muomalaga chiqarilgan.

Xulosa va takliflar.

Amir Temur davrida imperiya hududlarini kengaytirishga yo'naltirilgan harakatlar harbiy islohotlar ko'lamini kengaytirish bilan bir qatorda iqtisodiy islohotlar natijadorligini ta'minlashga xizmat qiladigan moliyaviy munosabatlarni tashkil etish va rivojlantirish zaruriyatini yuzaga keltirgan. Amir Temur hukmronligi yillarida imperiya hududining kengayishi tovar-pul munosabatlarini tartibga solish jarayonida to'lov tizimini optimallashtirishga xizmat qiladigan yagona pul birligini shakllantirishga ta'sir ko'rsatganligi bois tanga pullarni zarb etadigan zarbxonalar faoliyatiga ehtiyoj ortib boradi. O'z o'rnida imperiyaning 30 dan ortiq shaharlarida faoliyat olib borgan zarbxonalar faoliyati mazkur xulosani tegishli asosini shakllantirishga imkon beradi.

Amir Temur vafotidan keyin temuriylar imperiyasini siyosiy jihatdan keskin inqirozlarni boshdan kechirishi imperiya tarkibiga kiruvchi mamlakatlar o'rtasida o'zaro tashqi savdo aylanishini qisqarishiga ta'sir ko'rsatishi ishlab chiqarish hajmini qisqartirishi hisobiga iqtisodiy munosabatlar bilan bir qatorda moliya tizimini ham izdan chiqishiga sabab bo'ldi. Amir Temurning o'g'li Shohrux Mirzo tomonidan markaziy hokimiyatning o'rnatilinishi saltanat tarkibiga kiradigan davlatlarda ya'na tovar-pul munosabatlarini rivojlantirish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Imperiya hududini keskin qisqarishi tovar-pul munosabatlarini rivojlantirish tizimiga aks ta'sir ko'rsatganligi bois, Shohrux Mirzo va Mirzo Ulug'bek davrida pulning qadrsizlanish darajasi ortib boradi. Natijada, ichki va tashqi bozorda pul birligining barqarorligini ta'minlashga ta'sir ko'rsatadigan pul islohotini amalga oshirishga zaruriyat yuzaga keladi. Mirzo Ulug'bek davrida amalga oshirilgan pul islohotini amalga oshirish zaruriyati quyidagilarda o'z aksini topadi:

- temuriy shaxzodalar o'rtasida tinimsiz taxt uchun kurashlarning avj olib borishi saltanat xazinasini talon-taroj qilinishi natijasida qiymati yuqori bo'lgan oltin va kumush tangalar hajmi qisqarib boradi. Ushbu holat ichki bozorda tovar ayriboshlash tizimini rivojlantirishga aks ta'sirini ko'rsatadi;

- ichki bozorlarda narx darajasining keskin tebranish holatlari pul tizimida mayda pullar harakatini muvofiqlashtirishni talab etadi. Natijada fuls pullarni muomalaga kiritish orqali pul tizimini mustahkamlashga zaruriyat ortadi;

- o'z navbatida Mirzo Ulug'bek pul tizimining ishonchlilik tamoyiliga muvofiq bobosi Sohibqiron Amir Temurning markazlashgan davlat asosini shakllantirishda tangasozlikga asoslangan tajribasini davom ettirish orqali pul islohotlariga tarixiy asosda yondashuvning o'rnini saqlab qoladi.

Fikrimizcha, istiqbolda Amir Temur va temuriylar davridagi pul islohotini o'rganishda O'zbekistonda mavjud bo'lgan tarixiy zarbxona qoldiqlari, tangalar va hujjatlarni ilmiy tadqiq etishni raqamlashtirish orqali ochiq elektron baza yaratish maqsadga muvofiq. Bu jarayon Temuriylar davlatchiligini moliyaviy boshqaruv tizimini tarkibiy tuzilmasi va boshqaruv mexanizmlariga doir ilmiy izlanishlarni modulli asosda majmualashtirishga keng imkoniyat yaratishi mumkin.

Adabiyotlar/Jumepamypa/Reference:

Amir Temur. (2019) *Temur tuzuklari*. –T.: "O'ZBEKISTON", -184 b.

Normuminov, M. B. (2020). *Coins from the time of Amir Temur and the Temurids kept in the funds of the Termez archaeological museum*. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 07 (87), 336-342. Soi: <http://s-o-i.org/1.1/TAS-07-87-66> Doi: <https://dx.doi.org/10.15863/TAS.2020.07.87.66>

Razzoqov A.A, Tashmatov Sh.H, O'rmonov N.T. (2007) *Iqtisodiy ta'limotlar tarixi*. Darslik. –T.: «IQTISOD-MOLIYA» - 320 b.

Tojiyev, J. (2022). *Амир Темур ва темурийлар даврида тanga-пул муносабатлари*. *Евразийский журнал академических исследований*, 2(12), 1116–1120. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/6636>

Tursunov B. (2025) *Amir Temur va temuriylar davrida pul islohotini tashkil etish mexanizmi. AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVLATCHILIGINI JAHON IJTIMOY-IQTISODIY, SIYOSIY HAMDA MA'NAVIY-MADANIY TARAQQIYOTIDAGI O'RNI" MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI TO'PLAMI*: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15395733>// International scientific and practical conference. – T. 1. – №. 1. – C. 1-321.

Бартольд В.В. (1922) *История Туркестана* / В.В.Бартольд. Т.: Туркестанское государственное издательство, -58 с.

Давидович Е.А. (1983) *История денежного обращения средневековой Средней Азии (медные монеты XV - первой четверти XVI в. в Мавераннахре)* / Отв. ред. Г.К. Широков. – М.: Наука, - 362 с.

Исломов А, Эгамов Э. (2003) *Иқтисодий таълимотлар тарихи. Ўқув қўлланма. Т.: «ЎЗБЕКИСТОН»* - 216 б.

Массон М.Е. (1969) *К истории монетного чекана Средней Азии периода правления Тимура и Халил Султана* // ОНУ, № 8–9, с. 61, 63.

Нурмухамидова М, Аллаярова М, Мамажонов С. (2020) *Иқтисодий таълимотлар тарихи. Ўқув қўлланма. Гулистон. -392 б.*

Тўхтиев И. (2006) *Амир Темур ва темурийларнинг молия-пул сиёсати. Т.: «ЎЗБЕКИСТОН»* - 112 б.